

**UMUMIY O‘RTA TA‘LIM SAMARADORLIGINI OSHIRISHDA  
INNOVATSION TA‘LIM PARADIGMALARNING MAZMUNI**

**MATTIYEV MUROD SHAMSIYEVICH**

Buxoro davlat universiteti mustaqil tadqiqotchisi

**Kirish.** Zamonaviy ta‘lim tizimida yuz berayotgan tub ijtimoiy, iqtisodiy va texnologik o‘zgarishlar pedagogik tafakkur va ta‘lim amaliyotining yangicha nazariy asoslarda rivojlanishini taqozo etmoqda. Mazkur jarayonda **“innovatsion ta‘lim paradigma”** tushunchasi ta‘limni anglash, tashkil etish va rivojlantirishning ustuvor nazariy modeli sifatida namoyon bo‘ladi.

Ilm-fan falsafasida “paradigma” atamasi T. Kun tomonidan ilmiy jamoa tomonidan qabul qilingan nazariy qarashlar, metodlar va qadriyatlar tizimi sifatida talqin etilgan. Ushbu yondashuv pedagogika sohasiga tatbiq etilganda, pedagogik paradigmasi o‘qitishni jarayonining maqsadi, mazmuni, metodlari, subyektlar o‘rtasidagi munosabatlar va natijalarni belgilovchi konseptual asos sifatida tushuniladi. Shu nuqtayi nazardan, innovatsion ta‘lim paradigmasi an‘anaviy bilimga yo‘naltirilgan o‘qitish modelidan tubdan farq qiladi.

**Mavzuning dolzarbligi.** Innovatsion ta‘lim paradigmaning mohiyati, avvalo, ta‘lim markazida shaxs turishi bilan belgilanadi. Ushbu paradigma ta‘lim oluvchini bilimlarni passiv qabul qiluvchi emas, balki ta‘lim jarayonining faol, mustaqil va mas‘ul subekti sifatida qaraydi. Bu esa ta‘lim jarayonini shaxsga yo‘naltirilganlik, individual rivojlanish va ijodiy o‘zini namoyon etish asosida tashkil etishni nazarda tutadi.

Mazkur paradigma shuningdek kompetensiyaviy yondashuvga tayangan holda ta‘lim natijalarini qayta talqin qiladi. I.Ya. Lerner va V.V. Kraevskiy ta‘kidlaganidek, ta‘limning asosiy natijasi o‘zlashtirilgan bilimlar majmui emas, balki shaxsning muammoli vaziyatlarda mustaqil faoliyat yurita olish, qaror qabul qilish va ijtimoiy moslashish qobiliyatidir. Shu bois innovatsion ta‘lim paradigmasida o‘qitish mazmuni va metodlari real hayot bilan uzviy bog‘lanadi.

**Mavzu metodologiyasi.** Innovatsion ta‘lim paradigmaning yana bir muhim jihati - ta‘lim jarayonining faol va interaktiv xarakterga ega ekanligidir. J. Deveyning pragmatik pedagogika konsepsiyasiga ko‘ra, bilim faqat amaliy faoliyat jarayonida



samarali shakllanadi. Bu yondashuv loyiha metodi, muammoli o‘qitish, kollaborativ ta’lim kabi innovatsion metodlarning ustuvorligini ilmiy jihatdan asoslaydi. Shuningdek, L.Vigotskiyning ijtimoiy-madaniy rivojlanish nazariyasiga ko‘ra innovatsion ta’lim paradigmada bilimlarning ijtimoiy tabiatga ega ekanini ko‘rishimiz mumkin. Ta’lim jarayoni muloqot, hamkorlik va refleksiya orqali tashkil etilishi ta’lim samaradorligini oshiruvchi muhim omil sifatida qaraladi. Bu esa pedagog va ta’lim oluvchi o‘rtasidagi subyekt–subyekt munosabatlarini mustahkamlaydi.

Innovatsion ta’lim paradigmada **pedagogning roli** ham tubdan o‘zgaradi. Pedagog bilim beruvchi manba emas, balki o‘quv jarayonini loyihalovchi, rejalashtiruvchi yo‘naltiruvchi va fasilitator sifatida ham faoliyat yuritadi. Bu esa pedagogdan yuqori darajadagi innovatsion kompetensiya, refleksiv fikrlash va doimiy kasbiy rivojlanishni talab etadi.

**Innovatsion pedagogik paradigma**<sup>1</sup> - bu ta’limni shaxsga yo‘naltirilgan, kompetensiyaviy, faol va texnologik jihatdan yangilangan tizim sifatida talqin etuvchi zamonaviy pedagogik konsepsiyadir. Uning mohiyati ta’lim jarayonini jamiyatning strategik ehtiyojlari, shaxsning individual rivojlanishi va innovatsion faoliyat talablari bilan uyg‘un holda tashkil etishga qaratilgan bo‘lib, zamonaviy ta’lim islohotlarining ilmiy-metodologik asosini tashkil etadi.

XXI asrda jamiyat taraqqiyotining jadallashuvi, raqamli texnologiyalarning ta’lim sohasiga keng kirib kelishi hamda bilimlarning iqtisodiyotiga o‘tish jarayoni pedagogik tafakkurda tub o‘zgarishlarni talab etmoqda. Mazkur sharoitda an’anaviy pedagogik yondashuvlar ta’lim tizimining yangi ijtimoiy buyurtmalarini to‘liq qondira olmayotgani ilmiy tadqiqotlarda qayd etilmoqda (J. Dewey, E. Toffler, P. Drucker). Shu bois ta’lim nazariyasi va amaliyotida innovatsion ta’lim paradigmaga ehtiyoj ortib bormoqda.

Ilmiy-pedagogik manbalarda “paradigma” tushunchasi ta’lim jarayonini tashkil etish, anglash va rivojlantirishga doir ustuvor qarashlar tizimi sifatida talqin etiladi (T. Kuhn). Ushbu nuqtayi nazardan, innovatsion ta’lim paradigma o‘qitish jarayonini shaxsga yo‘naltirilganlik, kompetensiyaviylik, ijodkorlik va refleksivlik asosida qayta qurishni nazarda tutadi. Mazkur paradigma an’anaviy bilim uzatishga asoslangan modeldan farqli ravishda, ta’lim oluvchini faol subyekt sifatida qaraydi.

J. Deweyning pragmatik pedagogika konsepsiyasida ta’limning asosiy vazifasi shaxsni real hayot muammolarini hal etishga tayyorlash ekanligi ta’kidlanadi. Ushbu

<sup>1</sup> Mualliflik yondashuvi

g'oya innovatsion ta'lim paradigmaning metodologik asoslaridan biri sifatida namoyon bo'ladi. Shuningdek, L.S. Vigotskiyning ijtimoiy-madaniy rivojlanish nazariyasida bilim ijtimoiy faoliyat jarayonida shakllanishi isbotlanib, bu holat ta'lim jarayonida hamkorlik, muloqot va faol metodlarning ustuvorligini asoslaydi.

Innovatsion pedagogik paradigma mohiyatini kompetensiyaviy yondashuv alohida taxlil etish ahamiyatlidir. I.Y. Lerner, V.V. Kraevskiy va V.P. Bepalkoning tadqiqotlarida ta'lim natijalari faqat bilimlar majmui bilan emas, balki shaxsning amaliy faoliyatga tayyorligi, muammoli vaziyatlarda mustaqil qaror qabul qila olish qobiliyati bilan belgilanishi ta'kidlanadi. Bu esa innovatsion paradigmada pedagogik tamoyillarning qayta talqin etilishini nazarda tutadi.

Zamonaviy ilmiy manbalarda innovatsion ta'lim paradigmaning asosiy pedagogik tamoyillari sifatida quyidagilar ko'rsatiladi (1.2.1-rasmga qarang).



### **1.2.1-rasm. Innovatsion ta'lim paradigmaning pedagogik tamoyillari**

Mamlakatimizda ta'lim tizimida olib borilayotgan islohotlar ham innovatsion ta'lim paradigma g'oyalarini ilmiy asosda joriy etishni taqozo etmoqda. "Ta'lim to'g'risida"gi Qonun (2020) va "Yangi O'zbekistonni rivojlantirish strategiyasi (2022–2026)"da ta'lim sifatini oshirish, kompetensiyaviy yondashuvni joriy etish va innovatsion pedagogik texnologiyalarni qo'llash ustuvor vazifalar sifatida belgilangan. Bu esa innovatsion pedagogik paradigmaning mohiyati va tamoyillarini atrofiga ilmiy tahlil etish zaruratini yuzaga keltiradi.

Ilmiy adabiyotlar tahlili shuni ko'rsatadiki, innovatsion ta'lim paradigmaga oid tadqiqotlar mavjud bo'lsa-da, uning mohiyati, tuzilmasi va pedagogik tamoyillarini tizimli va kompleks tarzda ochib berishga qaratilgan ishlar yetarli emas. Ayniqsa,

mazkur paradigmaning milliy ta'lim tizimi sharoitidagi pedagogik imkoniyatlari va afzalligini aniqlash masalasi dolzarbligicha qolmoqda.

Shu bois "innovatsion ta'lim paradigma" tushunchasining mohiyati va pedagogik tamoyillari mavzusidagi tadqiqot zamonaviy pedagogika nazariyasini boyitish, ta'lim islohotlarini ilmiy-metodologik jihatdan asoslash hamda innovatsion ta'lim amaliyotini rivojlantirish nuqtai nazaridan dolzarb ilmiy muammo sifatida qaraladi.

Tahlillar shuni ko'rsatadiki, innovatsion ta'lim paradigma **falsafiy (T. Kun), psixologik (L.S. Vigotskiy), gumanistik (C. Rodjers) va texnologik (V.P. Bespalko)** yondashuvlarning uyg'unligida shakllangan. Mazkur olimlarning ilmiy xulosalari innovatsion pedagogik paradigmaning **mohiyati, tamoyillari va amaliy mexanizmlarini** tizimli ravishda o'rganishda asos bo'lib xizmat qiladi.

Innovatsion pedagogik paradigma – bu pedagogik jarayonni zamonaviy texnologiyalar, yangi o'qitish metodlari, kreativ yondashuv va ilmiy tadqiqotlar asosida yangilash kontseptsiyasi. U o'quvchilarning bilim, ko'nikma va kompetensiyalarini zamonaviy jamiyat va mehnat bozoriga moslashuvchan tarzda rivojlantirishga qaratilgan. Uning asosiy mazmuniy jihatlari:

- pedagogik jarayonlarni tizimli va uzluksiz yangilash;
- texnologiyalar va innovatsiyalarni o'qitish metodlariga integratsiyalash;
- o'quvchilarni mustaqil fikrlash, kreativlik va hayotiy ko'nikmalar bilan qurollashtirish;
- ta'lim sifatini oshirish va samaradorligini ilmiy asoslashdan iborat.

### **Innovatsion ta'lim paradigmalarining turlari**

<b>№</b>	<b>Nomi</b>	<b>Tavsifi</b>
1	<b>Texnologik paradigma</b>	Ta'lim jarayonida axborot-kommunikatsiya texnologiyalari (AKT), interaktiv platformalar, virtual laboratoriyalar va onlayn resurslardan foydalanish.
2	<b>Shaxsga yo'naltirilgan (person-centered) paradigma</b>	O'quv jarayoni o'quvchining individual xususiyatlari, qiziqishlari va qobiliyatlariga moslashtiriladi; kompetensiyalar va kreativlik rivojlanadi.
3	<b>Hamkorlik va ijtimoiy paradigma</b>	Guruh ishlari, loyiha metodikasi, kollaborativ o'qitish; o'quvchilar va o'qituvchilar o'rtasida interaktiv hamkorlikni rivojlantirishga qaratilgan.

4	<b>Ilmiy-pedagogik paradigma</b>	Ta'lim jarayonini ilmiy asoslar bilan yangilash; o'quv dasturlari va metodlarni pedagogik tadqiqot natijalari asosida ishlab chiqish.
5	<b>STEAM integrativ paradigma</b>	Fan, texnologiya, muhandislik, san'at va matematika (STEAM) elementlarini birlashtirish orqali o'quvchilarni multidisipliner fikrlashga o'rgatish.

**Texnologik paradigma** - ta'lim jarayonida axborot-kommunikatsiya texnologiyalari, interaktiv platformalar, virtual laboratoriyalar va onlayn resurslarni keng qo'llashni nazarda tutadi. O'quvchilar va o'qituvchilar o'rtasida raqamli vositalar orqali samarali o'zaro ta'sirni tashkil qiladi. Natijada, ta'lim jarayoni interaktiv va qiziqarli bo'ladi, bilimlarni mustahkamlash va amaliy ko'nikmalarni rivojlantirish imkoniyati oshadi.

**Shaxsga yo'naltirilgan** (person-centered) paradigma - o'quv jarayoni o'quvchining individual qiziqishlari, xususiyatlari va qobiliyatlariga moslashtiriladi. Pedagoglar har bir o'quvchining rivojlanish sur'atini hisobga olib, o'quv dasturini shaxsiylashtiradi. Shu tariqa, o'quvchilar mustaqil fikrlash, kreativlik va hayotiy ko'nikmalarni rivojlantiradi.

**Hamkorlik va ijtimoiy paradigma** - o'quvchilarning guruh ishlari, loyiha metodikasi va kollaborativ o'qitish orqali rivojlanishini ta'minlaydi. U o'quvchilar va o'qituvchilar o'rtasida interaktiv hamkorlikni kuchaytirishga qaratilgan. Natijada, jamoada ishlash, fikr almashish va ijtimoiy ko'nikmalar shakllanadi.

**Ilmiy-pedagogik paradigma** - ta'lim jarayoni ilmiy tadqiqotlar natijalari asosida yangilanadi. O'quv dasturlari, baholash tizimi va o'qitish metodlari pedagogik tadqiqot natijalari bilan uyg'unlashtiriladi. Shu orqali ta'lim jarayoni samarali va asosli bo'ladi, yangi pedagogik metod va texnologiyalar tatbiq etiladi.

**STEAM - integrativ paradigma** - fan, texnologiya, muhandislik, san'at va matematika (STEAM) elementlarini birlashtirish orqali o'quvchilarni multidisipliner fikrlashga o'rgatadi. Loyihalar va amaliy mashg'ulotlar orqali o'quvchilar nafaqat nazariy bilimlarni, balki hayotiy va kasbiy ko'nikmalarni ham rivojlantiradi.

**Innovatsion pedagogik paradigmalarning rivojlanish bosqichlari**

<b>Bosqich</b>	<b>Tavsif</b>
1	<b>An'anaviy pedagogik boshqich:</b> nazariy bilim va memorisatsiyaga asoslangan o'qitish. Innovatsion elementlar cheklangan.



2	<b>Ilg'or pedagogik texnologiyalar bosqichi:</b> interaktiv metodlar, multimedia resurslar va elektron dasturlar qo'llanila boshlaydi.
3	<b>Shaxsga yo'naltirilgan va kompetensiyaga asoslangan bosqich:</b> o'quvchi markazida, individual kompetensiyalar va kreativlik rivojlantiriladi.
4	<b>Integrativ va STEAM bosqich:</b> fanlararo loyihalar, real hayot vazifalari va multidisipliner yondashuvlar asosida ta'lim.
5	<b>Ilmiy-pedagogik va innovatsion integratsiya bosqichi:</b> pedagogik jarayon ilmiy tadqiqotlar, zamonaviy texnologiyalar va global tajribalar bilan uyg'unlashadi.

An'anaviy pedagogik yondashuvlar bosqichi - dastlabki bosqichda ta'lim nazariy bilim va memorisatsiyaga asoslangan bo'lgan. O'quvchilar bilimlarni eslab qolish va qayta ifodalashga o'rgatilgan, innovatsion metodlar va texnologiyalar cheklangan miqdorda qo'llanilgan. Shu sababli, bu bosqich pedagogik jarayonning asosan an'anaviy shakllarini ifodalaydi.

Ilg'or pedagogik texnologiyalar bosqichi - ta'lim jarayonida interaktiv metodlar, multimedia resurslar va elektron dasturlar keng qo'llanila boshlaydi. O'qituvchilar innovatsion texnologiyalar yordamida o'quvchilarning bilim va ko'nikmalarini mustahkamlashga harakat qiladi. Bu bosqich pedagogik jarayonda texnologik innovatsiyalarni joriy qilish bilan ajralib turadi.

Shaxsga yo'naltirilgan va kompetensiyaga asoslangan paradigma - ta'lim jarayoni o'quvchi markazida tashkil qilinadi. O'quvchilarning individual qobiliyatlari, qiziqishlari va kompetensiyalari rivojlantiriladi. Pedagoglar shaxsga moslashtirilgan yondashuvlar, kreativ va amaliy ko'nikmalarni rivojlantirish metodlarini qo'llaydi.

Integrativ va STEAM bosqichi - ta'lim jarayoni fanlararo loyihalar, real hayot vazifalari va multidisipliner yondashuvlar asosida amalga oshiriladi. O'quvchilar nafaqat nazariy bilimlarni, balki amaliy va kasbiy ko'nikmalarni ham rivojlantiradi. STEAM bosqichi ushbu bosqichning asosiy xususiyati hisoblanadi.

Ilmiy-pedagogik va innovatsion integratsiya bosqichi - pedagogik jarayon ilmiy tadqiqotlar, zamonaviy texnologiyalar va global pedagogik tajribalar bilan uyg'unlashadi. Ta'lim tizimi doimiy yangilanadi, o'quvchilarning kompetensiyalari va kreativligi maksimal darajada rivojlantiriladi. Bu bosqich pedagogik jarayonning eng yuqori, integratsiyalashgan shakli hisoblanadi.



Innovatsion ta'lim paradigma ta'lim jarayonini tashkil etish, mazmunini belgilash va natijalarini baholashda an'anaviy didaktik yondashuvlardan tubdan farq qiluvchi tamoyillarga asoslanadi. Ushbu tamoyillar zamonaviy jamiyat ehtiyojlari, shaxs rivoji va ta'lim tizimini modernizatsiya qilish talablaridan kelib chiqadi.

1. Shaxsga yo'naltirilganlik tamoyili - innovatsion ta'lim paradigmaning asosiy tamoyillaridan biri ta'lim jarayonining shaxsga yo'naltirilganligi hisoblanadi. Ushbu tamoyilga ko'ra, ta'lim oluvchi o'quv jarayonining markazida turadi va uning individual ehtiyojlari, qobiliyatlari, qiziqishlari hamda rivojlanish sur'atlari inobatga olinadi. C. Rodjers va gumanistik pedagogika vakillarining ilmiy qarashlarida ta'lim shaxsning erkin rivojlanishi va o'zini namoyon etishi uchun qulay shart-sharoit yaratishi zarurligi ta'kidlanadi. Mazkur tamoyil ta'limda individuallashtirish va differentsiallashtirish mexanizmlarini joriy etishni taqozo etadi.

2. Faoliyatga va kompetensiyaga yo'naltirilganlik tamoyili - innovatsion paradigmada ta'lim natijalari bilimlar majmui bilan emas, balki shaxsning muayyan faoliyatni samarali amalga oshira olish qobiliyati bilan belgilanadi. I.Ya. Lerner va V.V. Kraevskiy tomonidan asoslangan kompetensiyaviy yondashuvga muvofiq, ta'lim jarayoni o'quvchilarda muammoli vaziyatlarda mustaqil qaror qabul qilish, tanqidiy fikrlash va ijodiy faoliyat ko'nikmalarini shakllantirishga yo'naltiriladi. Bu tamoyil ta'lim mazmuni va metodlarini amaliy faoliyat bilan uyg'unlashtirishni talab etadi.

3. Ta'lim oluvchining faolligi va subyektlik tamoyili - mazkur tamoyil ta'lim oluvchini bilimlarni passiv qabul qiluvchi emas, balki ta'lim jarayonining faol subyekt sifatida qarashga asoslanadi. J.Deweyning pragmatik pedagogika konsepsiyasida bilim faqat faoliyat jarayonida shakllanishi isbotlangan. Innovatsion pedagogik paradigmada loyiha metodi, muammoli o'qitish, kollaborativ ta'lim kabi metodlar aynan ushbu tamoyilni amalga oshirishga xizmat qiladi.

4. Hamkorlik va muloqotga asoslanganlik tamoyili - innovatsion pedagogik paradigmada ta'lim jarayoni pedagog va ta'lim oluvchilar, shuningdek, ta'lim oluvchilarning o'zaro hamkorligi asosida tashkil etiladi. L.S. Vygotskiyning sotsiokultural rivojlanish nazariyasiga ko'ra, bilim ijtimoiy muloqot jarayonida shakllanadi. Ushbu tamoyil subyekt-subyekt munosabatlarini rivojlantirish, jamoaviy faoliyat va refleksiv muloqotni ta'lim jarayonining muhim komponentiga aylantirishni nazarda tutadi.

5. Innovatsion va texnologik integratsiya tamoyili - zamonaviy ta'limda raqamli texnologiyalar va innovatsion pedagogik vositalardan foydalanish innovatsion pedagogik paradigmaning ajralmas qismi hisoblanadi. V.P. Bespalko va M. Fullan



tadqiqotlarida ta'lim jarayonini texnologik jihatdan loyihalash va innovatsiyalarni tizimli joriy etish ta'lim samaradorligini oshiruvchi muhim omil sifatida e'tirof etiladi. Ushbu tamoyil raqamli ta'lim platformalari, interaktiv metodlar va masofaviy ta'lim shakllaridan samarali foydalanishni talab etadi.

6. Refleksiya va uzluksiz rivojlanish tamoyili - innovatsion pedagogik paradigmada ta'lim jarayoni doimiy tahlil, baholash va takomillashtirish asosida tashkil etiladi. Pedagog va ta'lim oluvchilar o'z faoliyatini tahlil qilib borishi, o'quv natijalarini baholashi va yangi maqsadlarni belgilashi refleksiv faoliyatning asosini tashkil etadi. Ushbu tamoyil pedagoglarning uzluksiz kasbiy rivojlanishi va ta'lim sifatini barqaror oshirishni ta'minlaydi.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati**

1. Nurmurodova, M.T.Q., & Olimov, T.H. *Ta'lim jarayonida o'qituvchi va o'quvchi munosabatlarini takomillashtirishda innovatsion yondashuvlar*. TADQIQOTLAR jurnali, 77(1), 119-123.
2. Raximova, Z. *Innovatsion pedagogik texnologiyalar*. TADQIQOTLAR журна́ли.
3. Tokhirova, M.S. *Didactic System of Development of Pedagogical Cooperation in Innovative Educational Conditions*. Journal of Pedagogical Inventions and Practices.
4. Choriyeva, D.U. *"Texnologiya" fani o'qituvchilarini innovatsion kasbiy faoliyatga tayyorlashning didaktik shart-sharoitlari*. Acumen: International Journal of Multidisciplinary Research.
5. Boymirzayeva, S. *Maktabgacha ta'lim tizimida innovatsion yondashuvning uslubiy asoslari va pedagogik shart-sharoitlari*. University Research Base.
6. Deykanova, R.B. *Developing Students' Independent Thinking Based On Modern Pedagogical Approaches In Primary Education*. International Journal of Pedagogics.
7. Valiyeva, S.A. *The Use of Innovative Pedagogical Methods in Improving the Quality of Education and Ensuring Their Effectiveness*. International Journal of Artificial Intelligence.
8. Soliyev, E. *Innovatsion kompetentlik tushunchasi va uning ilmiy-pedagogik asoslari*. MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI JURNALI.